



UDK: 81'42:81'27

Mirzo **TURSUNOV**,  
Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD  
E-mail: [m.m.tursunov@buxdu.uz](mailto:m.m.tursunov@buxdu.uz)

BuxDU dotsenti, PhD N.Qobilova taqrizi asosida

### LISONIY OBRAZ TUSHUNCHASINING FUNKTSIONAL VAZIFALARI TAVSIFI VA TASNIFI

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikning turli sohalarida obraz tushunchasining qo'llanilishi, talqin qilinishi, uning tadqiqotlarda obyekt sifatida belgilanishi, komponentlari, tavsifi hamda boshqa funksional vazifalari muhokama qilinadi. Maqola turli jahon olimlarining obraz tushunchasiga bergan ta'rifi hamda taqdim etgan tavsiflarini ham tahlil qiladi. Obrazning u yoki bu hudud, obyekt, predmet asosida shakllanadigan xususiyatlari izohlar bilan sharhlanadi. Obraz tushunchasining imij konsepti bilan farqli va o'xshash jihatlari xarakterlanadi. Maqolada obrazning turli kontekstual hamda pragmatik vazifalari ham tahlilga tortilgan. Shuningdek, jamiyat uchun obrazning muhim ahamiyati, uning shakllanish jarayoni tasvirlangan.

**Kalit so'zlar:** Kognitiv model, semantik maydon, mental mohiyat, perseptiv asos, statik obraz, freym, lisoniy obraz, vizual xususiyat, obrazlar tipologiyasi, lingvoimagologiya, lisoniy stereotiplar, mamlakat obrazi, individual tasavvur.

### FUNCTIONAL TASKS, CHARACTERISTIC FEATURES AND CLASSIFICATION OF THE NOTION LINGUISTIC IMAGE

Annotation

This article discusses the application and interpretation of the notion image in various fields of modern linguistics, its definition as an object in research, components, description, and other functional tasks. The article also analyzes the definitions and descriptions given to the notion image by various world scientists. The characteristics of the image, formed on the basis of a particular territory, object, or subject, are explained with explanations. Differences and similarities of the notion image with the concept of image are characterized. The article also analyzes various contextual and pragmatic functions of the image. It also describes the importance of the image for society and the process of its formation.

**Key words:** Cognitive model, semantic field, mental essence, perceptual basis, static image, frame, linguistic image, visual feature, typology of images, linguoimagology, linguistic stereotypes, image of the country, individual imagination.

### ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ЗАДАЧИ, ХАРАКТЕРИСТИКА И КЛАССИФИКАЦИЯ ПОНЯТИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ОБРАЗА

Аннотация

В данной статье рассматриваются применение, интерпретация понятия образа в различных областях современной лингвистики, его определение в качестве объекта исследования, компоненты, описание и другие функциональные задачи. В статье также анализируются определения и описания понятия образа, данные различными учеными мира. Особенности образа, формирующиеся на основе той или иной территории, объекта, предмета, интерпретируются комментариями. Характеризуются различия и сходства понятия образ с концептом имидж. В статье также анализируются различные контекстуальные и прагматические функции образа. Также описывается важность образа для общества, процесс его формирования.

**Ключевые слова:** Когнитивная модель, семантическое поле, ментальная сущность, перцептивная основа, статический образ, фрейм, языковой образ, визуальная особенность, типология образов, лингвистическая имагология, языковые стереотипы, образ страны, индивидуальное воображение.

**Kirish.** Zamonaviy tilshunoslikda obraz tushunchasiga turli xil ta'riflar berilmoqda. Obraz faqatgina bir tilshunoslik sohasi obyektigina emas, u deyarli barcha lingvistik dissiplinalarda muhokama qilinadigan tushunchaga aylanib ulgurgan.

Obraz kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, pragmalingvistika, psixolingvistika, lingvoaksilogiya, sotsiolingvistika, semisiologiya va boshqa tilshunoslik sohalarida tadqiq qilinadi.

Obraz kognitiv model birligi sifatida inson ongida uzoq vaqtlar davomida olamning lisoniy manzarasini yaratish jarayonida shakllantiriladi. Bir predmet, obyekt, hududga nisbatan yaratilgan obraz butun jamiyatda ifodalanadigan stereotiplarga asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** A.A.Gravernig fikricha, "obraz" so'zi, masalan rus tilida ko'proq kulturologik, mavhum xarakterga ega, biroq "imij" leksik birligi aksincha, utilitar-amaliy xususiyatlarga ega; shu sababdan ham "obraz" tushunchasi odatda mavhum (madaniy, falsafiy va badiiy) semantik maydonlarda, "imij" esa reklama, OAV, xalqaro munosabatlar kabi amaliy sohalarida qo'llaniladi [2]. O'zbek yoki ingliz tilida esa obraz so'zi kontekstga ko'ra mavhum yoki aniq realiyali vaziyatlarda u yoki bu ma'noni ifoda etadi.

Obraz haqida tilshunos olimlarning qator tadqiqotlaridagi xulosalarga asoslangan holda lisoniy yoki nutqiy obraz obraz tipi sifatida u yoki bu obyekt yuzasidan insonning, bir guruh odamlarning yoki butun jamiyatning ongida, tafakkurida shakllanadigan ma'lum bir qat'iy tasavvur

(mental mohiyat) hisoblanadi hamda lisoniy va nutqiy birliklar yordamida aniq bir matn yoki diskursda ifoda etiladi.

Tilshunolar obrazlarning turli lisoniy tipologiyasini muhokama qilishadi. Misol uchun, psixolingvistik assosiativ tajribada respondentlarning obrazli javoblarini, natijalarini tahlil etib, tilshunos olim M.Ya.Rozenfeld hissiy obrazning (konseptning perseptiv tarkibiy qismi) tipologiyasini ikki aspektda quradi: mazmunli aspektda hamda shu obrazning obyektivatsiyalashgan aspektida [7]. T.E.Grinberg obrazga biror narsaning “subyektiv tarzda qabul qilingan aksi, tasviri”, biror bir narsa haqidagi tasavvur deb ta’rif beradi, imij (misol uchun reklamalar va jamiyat faoliyatiga aloqador jarayonlarda) esa “aynan maqsadli shakllantiriladigan (auditoriyaning ideallari hamda tablari o’rganilgandan keyingi tadqiqotlar natijalariga asoslanib yaratiladigan) obrazdir” [3].

Obraz har qanday obyektning tasvir etish qobiliyatiga ega bo’lsa, imij faqat jamoat obyektlarining (kompaniya, siyosatchi, mahsulot va hokazo) tasvirlay oladi, ya’ni imij namoyish etilishi ko’zda tutilgan obyekt jamoatga tegishli bo’lsagina mavjud bo’la oladi [4]. A.E.Mamatov ham obraz haqida o’z fikrlarini quyidagicha ta’kidlab o’tgan: bunda tasvirlanayotgan voqea-hodisalar obrazlar orqali izohlanadi. Obraz esa “tashqi olamning predmetlari va hodisalarining ong yordamida qayta ifodalanishi” [9]. O’Q.Yusupov konsept hamda obraz aloqadorligini shunday ta’riflaydi: “Konsept - bu ongimizda mavjud tashqi yoki ichki dunyodagi biror narsa yoki hodisa haqidagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo’lgan ijobiy, salbiy yoki neytral munosabatdir” [10].

Zamonaviy semasiologiyada metaforik obraz konseptga tenglashtiriladi. U “til tashuvchisi uchun so’zsiz psixologik reallikka ega” kognitiv struktura sifatida anglashiladi [8]. V.A.Maslovaning ta’kidlashicha, madaniyat turli belgilar ichiga ularning semantikasidagi assosiativ-obrazli asoslari orqali kirib boradi hamda obrazlarning stereotiplar, etalonlar, ramzlar, mifologemalar, prototipik vaziyatlar va milliy madaniyatning boshqa belgilari bilan aloqadorlik hamda munosabatlarni mavjudligini aniqlash orqali xarakterlanadi [6]. Aynan milliy til semantikasida shakllangan obrazlar tizimi jonli nutq (til) jarayonidagi madaniy ma’lumot bilan to’qnash keladigan markaziy lisoniy hudud sanaladi. Inson ongida shakllangan tashqi olamdagi hodisa va predmetlar ichki obrazlar shaklida ifodalanadi. A.N.Leontyevaning fikricha, inson ongida maxsus “beshinchi kvazio’lchov” mavjud, unda insonni o’rab turgan haqiqiy olam ifodalangan: bu – “ongli maydon”, tushunchalar tizimidir [5]. Shu asosda, olamning lisoniy manzarasi bu – “obrazlar tizimi” deb ta’kidlashimiz mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Obrazlarning tilshunoslikning turli sohalaridagi vazifalari, tasnifi hamda tavsifini aniqlash diskursiv, kontekstual, kontent tahlil metodlari yordamida amalga oshiriladi. Turli funktsional vazifalar, obrazlarning lingvokulturologik, lingvoimagologik, lingvoaksiologik, sotsiolingvistik xarakterli xususiyatlari hamda ularning qo’llanilishi tahlilga tortiladi.

**Tahlil va natijalar.** Lisoniy yoki nutqiy obraz tilshunoslikning zamonaviy yo’nalishlaridan biri hisoblangan lingvoimagologiyaning tadqiqot obyekti sanaladi. Ba’zi tilshunos olimlar obraz tushunchasi bilan birgalikda imij tushunchasining ham ushbu soha obyekti sifatida qo’llanilishi mumkinligini ta’kidlashadi, lekin aksariyat ilmiy ishlarda yuqoridagi ikki terminlar o’rtasidagi farqlar aniq belgilanishi kerakligi ta’kidlanadi. Quyida obraz va imij tushunchalari o’rtasidagi munosabat hamda ular o’rtasidagi farqlar quyidagi mezonlar asosida belgilanishi keltirib o’tilgan:

1) shakllanishning maqsadli yoki spontan tarzda amalga oshirish bo’yicha mezon; Obraz spontan (to’satdan, birdaniga) yaratilsa, imij maqsadli tarzda shakllantiriladi.

2) shakllanishning xronologik chegaralari doirasidagi mezon;

Obraz agarda uzoq tarixiy davr jarayonida shakllangan bo’lsa, o’zining nisbatan barqarorligi bilan ajralib turadi; u turli tarixiy-madaniy matnlarda asosida chuqur tarixiy xotirani aks ettiradi, uning yaratilishiga bir 10 yillik emas, hatto 100 yillik vaqt sarflanishi mumkin. U yoki bu xalq obrazlari juda uzoq yillar davomida shu obrazga xos milliy-madaniy ufovi, xarakterli xususiyatlarni o’zida saqlab, ularni avlodlardan avlodga yetkazib boradi. Shu nuqtai nazardan xalq madaniyatiga xos obraz, ramz va umuman umummilliy konseptlar mazkur jamiyatda asrlar davomida saqlanadi va o’z jozibasini, go’zalligini, ahamiyatini yo’qotmaydi. Mazkur obrazlar minglab, millionlab insonlarning ongiga joylashib olib, madaniy kodlarni hosil qiladi, shu sababdan ham u yoki bu madaniyatga oid unisurni tushunish uchun unga xos bo’lgan madaniy, milliy, tarixiy voqea-hodisalar, an’ana, urf-odatlar, mentalitet haqida xabarador bo’lish kerakligi uqitiriladi. Imij esa qisqa vaqt ichida turli zamonaviy IT texnologiyalar yordamida sun’iy ravishda yaratilishi mumkin, imijni yaratayotgan imijmeykerning kommunikativ maqsadlarining o’zgarishi yoki buyurtmachining talab va istaklariga asosan imijning ba’zi qismlarida o’zgartirishlar amalga oshirilishi ham mumkin.

3) namoyish etilayotgan obyektning xarakterli xususiyatlarini ifoda etish bo’yicha mezon;

Obrazning bir nechta turlari mavjud: subyektiv obraz yoki o’zi haqidagi obraz (o’zini-o’zi tasvirlash jarayoni), obyektiv obraz (kommunikatsiyaning boshqa ishtirokchilari ongida shakllangan tasvir yoki obraz), ideal obraz (boshqa subyektlar ongida ideal obrazni yaratish, ya’ni maqsadli tarzda yaratiladigan obraz, ya’ni imij) [3].

4) obyektning aks ettirishdagi obyektivlik (xolislik) darajasi bo’yicha mezon;

Obraz imijga qaraganda obyektning xarakterli jihatlarni xolisroq tasvirlaydi. Imij qaysidir darajada oldindan belgilab qo’yilgan namunaviy obrazga mos kelishga harakat qiladi, ya’ni uni ideallashtiradi: foydali ammo ko’zga ko’rinmaydigan jihatlarni yanada yaqqolroq namoyon qiladi hamda qo’shimcha ideologik, sotsial, psixologik qiymatlar bilan obyektning umumiy ko’rinishini to’ldiradi. Buning sababi shundan iboratki, imij undan mukammallikni kutayotgan individlarga moslashishga urinadi, imijni shakllantirishning maqsadi obyektning eng zo’r ko’rinishda namoyon etish, uni omadli, dadil, shahdam oldinga harakatlanishini ta’minlashdir.

5) qo’llanilish sohalarini bo’yicha mezon;

Hissiy obraz leksik ma’noning komponenti sifatida quyidagi bir qator belgilarga ko’ra ajratiladi:

\* perseptiv asosga ko’ra (ko’zga tashlanadigan, ko’rinadigan, eshitiladigan, oqohlantiradigan, tegish, tegib ko’rish, ushlab ko’rish orqali aniqlanadigan, hidlab ko’rib aniqlanadigan, tatib ko’rib (ta’min yordamida) aniqlanadigan obrazlar);

\* tasavvur qilishning sxematik darajasiga ko’ra (obraz-kartinalar va obraz-sxemalar);

\* real voqelikni aks ettirish xarakteriga ko’ra (obyekt obrazlari va turli vaziyatlar obrazlari);

\* dinamik daraja (dinamik yoki statik obrazlar);

\* tajriba situatsiyasining shartlanishi (situativ va situatsiyadan tashqarida).

Atrofimizdagi olamni his etish obyektivatsiyasi usuliga asosan obrazlar emotsional-baho beruvchi xususiyatlardan mahrum bo’lgan, detallashtirilgan hamda umumlashtirilgan turlarga bo’linadi. O’z-o’zidan emotsional-baho beruvchi xarakterli xususiyatlarga ega obrazlarda turli hissiy, yorqin ta’rif va tavsiflar mavjud bo’ladi hamda biror bir obyekt yoki predmet jamiki expressivlik lisoniy belgilar va birliklar yordamida tasvirlanadi.

I.A.Sternin obrazning bir nechta turlarini ajratib ko'rsatadi: obraz-fakt, obraz-epizod, obraz-prototip, birlamchi obraz, ikkilamchi obraz. Obraz-fakt faoliyat va jarayon situatsiyasidan tashqaridagi predmet hamda hodisa obrazi sanaladi, obraz-epizod esa freym, ssenariydir, ya'ni ba'zi bir harakatlarning ketma-ketligini bildiruvchi obrazdir, obraz-prototiplar hammaga ma'lum tarzda namoyon bo'ladigan misolni ifodalaydigan aniq perseptiv obraz hisoblanib, konseptni ifoda etadi. Birlamchi obrazlar insonning his etuvchi organlari yordamida atrofimizdagi olamda mavjud u yoki bu predmet yoki obyektini his qilgan holda shakllanadi hamda o'z navbatida ikkilamchi obrazlar kognitiv unsurlar hisoblanib, boshqa predmet va hodisalarni tushunish, anglash jarayonida birlamchi obrazlarga asoslangan holda qayta mulohaza qilish, fikr qilish orqali yaratiladi. Birlamchi perseptiv obrazlar o'z navbatida detallashtirilgan hamda umumlashtirilgan (verbal eksplikatsiyada ma'lum bir qiyinchiliklar uyg'otishi mumkin) obrazlarga bo'linadi, har ikkalasi ham o'rni kelganda obraz-belgilar va obraz-prototiplar sifatida qo'llanilishi mumkin.

Lisoniy (til) obrazni insonning til birliklari va iboralariga (semantikaga o'xshab lisoniy belgi mazmuniga yoki uning bir qismiga emas) qilgan perseptiv reaksiyasi (insonda paydo bo'ladigan obrazli javob) sifatida talqin etish jarayonida B.M.Gasparov obrazli reaksiyalar hamda ularga mos keladigan obraz komponentlarining tiplarini sanab o'tadi:

- konkret obraz-kartina vizual xususiyatga ega, ya'ni tashqi ko'rinishli material predmetlarni ifodalaydigan til birliklariga beriladigan obrazli javob sifatida, misol uchun "o't" so'zi obrazini hosil qilishda uning tashqi ko'rinishi, vizualligi muhim rol o'ynaydi [1];

- bilvosita obraz mavhum birlikga javoban amalga oshadi hamda tashqi ko'rinishga ega bo'lmagan va umuman hech qanday material tasvirni bildirmaydigan obrazdir, bunga misol tariqasida "qo'rquv" so'zini keltirish mumkin, uning obrazini inson o'z ongida hosil qilishi uchun u bilan hech qanday material kontaktga ega bo'lmaydi. Shu bilan birgalikda, bilvosita obraz lisoniy muhitga to'raligicha kirgan bo'ladi, unda doimiy tarzda u yoki bu obrazli tasvirlanadigan komponentlar mavjud, shu sababdan ham mazkur obraz mukammal, to'liq ko'rinishga egadir;

- iyeroglifik obraz "mavhumlashgan, kichik-sxematik ko'rinish"ga ega obrazdir; u eslab qolinadigan yoki inson miyasida tasvirlangan konkret predmet sifatida ko'rinmaydi, shunday buyum borligiga shunchaki shama qiladi, misol uchun, bunday obraz tezlik, tezkorlik, tez harakatlanadigan kabi so'zlar bilan qo'llaniladigan iboralarni ifodalash jarayonida paydo bo'ladi;

- kinetik obraz tabiatan vizual bo'lmagan (ko'zga ko'rinmaydigan) hodisalarni amalda mavjud bo'lgan unsurlar sifatida bayon qilishga imkon beruvchi obrazdir, misol uchun, harakatga oid g'oyalarni jismoniy yoki ramziy tarzda ifodalashda qo'llaniladi: rivojlanmoq, ko'rsatib o'tmoq va hokazo;

- grafik obraz yozma belgilarda namoyon bo'ladigan so'z yoki to'liq iboraning obrazi sanaladi, ya'ni so'z hamda iboralarning harfli obrazidir, til ta'limi hamda refleksiya natijasida metalisoniy obraz ko'rinishiga kelgan tasvir.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha komponentlar (ba'zida aspektlar deb ham ataladi) u yoki bu obrazli proyeksiyani shakllantirish jarayonida birgalikda ishtirok etishi mumkin, shunday bo'lsada, lisoniy obrazni yaratishda asosiy rol tashqi ko'rinishli (vizual) tasvirga beriladi, zero unda keng qamrovlilik, bir nechta darajali yorqinlilik, shuningdek, moslashish va o'zgaruvchanlik kabi qator xarakterli xususiyatlar mavjud.

Obrazlar tipologiyasi masalasida lingvoimagologiya uchun muhim bo'lgan bir nechta obrazlar ("o'ziniki",

"beganoniki", "boshqaniki", "bunga tegishli bo'lmagan") o'rtasida aniq farqni belgilashdir. Mazkur obrazlar "biz-ular" ("o'zimizniki-beganoniki") ma'noli qarama-qarshiligiga aloqador, ular xohlagan madaniyatga tegishli maxsus fundamental ma'lumotlarni ochib tashlovchi "madaniy universallar" deb ham ataladi.

Shu o'rinda zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishlaridan biri bo'lgan lingvoimagologiyaning o'rganish obyektlari xususida to'xtalib o'tsak. Ma'lumki, mazkur fan lingvoimagologiya lingvokulturologiya, etnolingvistika, etnologiya, etnosemiotika, lingvopedagogika, diksursologiya, lingvoaksiologiya kabi bir nechta gumanitar hamda lingvistik fanlar kesishmasida paydo bo'lgan. Shuningdek, lingvoimagologiyani "marginal" (unchalik ham katta vazifani bajarmaydigan, o'ta muhim hisoblanmaydigan) lisoniy yo'nalish sifatida tavsiflashadi. U birinchi navbatda kommunikatsiya nazariyasi hamda kognitiv tilshunoslikka aloqador deya ta'riflanadi.

Lingvoimagologiyaning o'rganish obyektlari masalasida ham turli fikrlar mavjud, quyida ulardan eng mashhurlarini keltirib o'tamiz:

\* u yoki bu tilga beriladigan baho, tilga aloqador bo'lmagan stereotiplar va belgilar bilan aloqa: lingvistik imagologiyaning obyekti u yoki bu tilga beriladigan har qanday baho yoki til tashuvchilari hamda til o'rganuvchilari tomonidan ishlatiladigan elementlar bo'lishi mumkin;

\* lisoniy stereotiplar: lingvistik imagologiya stereotiplarni o'rganishga bel bog'lagan. Til tashuvchilari bu stereotiplar yordamida bir til bilan boshqa tilga yoki o'zlarining ona tillaridagi "begona" shakllarga (ya'ni bu tilga xos bo'lmagan lisoniy belgilarga) munosabatda bo'lishadi;

\* aniq bir diskursda mamlakat/davlat/mintaqa obrazi: lingvistik imagologiya obrazlar haqidagi fan hisoblanib, konkret diskursda u yoki bu mamlakatga oid obrazning shakllanishi hamda funktsionalligi jarayonida lisoniy o'ziga xos xususiyatlarni o'rganadi;

\* "begona/boshqaga tegishli" (mamlakat, mintaqa, xalq, etnos, madaniyatga oid) obraz yoki imij: lingvistik imagologiyaning predmeti til formasida (adabiyot, dramaturgiya, she'riyat, esseistika, sayohatga oid qaydlar va xotiralarda va hokazo) mustahkamlangan boshqa madaniyat, boshqa xalq, etnoslarning obrazini tadqiq qilish hamda kollektiv, guruh, individual tasavvurni (mif va stereotiplar shaklida) ifoda etish hisoblanadi. Lingvoimagologiya boshqa xalq yoki mamlakat vakillarining lisoniy tafakkurida u yoki bu xalq obraziga oid shakllangan verbal timsolni o'rganadi, ya'ni bir xalq yoki mamlakatning obraz yoki imijini boshqa xalqning lisoniy tafakkurida qanday hosil bo'lganligini o'rganadi.

Mamlakatning lisoniy (til yoki nutqiy) obrazi haqida so'z borganda quyidagilarni ta'kidlashimiz mumkin: mamlakatning lisoniy obrazi individ, ma'lum bir guruh insonlar yoki butun jamiyat ongida, tafakkurida biror bir matn yoki diskursda lisoniy hamda nutqiy vositalar yordamida ifodalangan u yoki bu davlat borasida shakllangan ma'lum bir tasavvurlar majmui hisoblanadi.

**Xulosa va takliflar.** Bir so'z bilan aytganda, obraz tushunchasi tilshunoslikda keng jabhada qo'llaniladigan konsepti hisoblanadi. U insonning bolaligidan boshlab ongida shakllanadigan, ba'zida o'zgaradigan, ba'zida qat'iy turadigan tasvirdir. Aynan individlarning u yoki bu hudud, obyekt haqidagi individual obrazlari umummilliy obrazlarni yaratishga, shakllantirishga asos sifatida xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, obrazning individ ongida hosil bo'lishiga sabab bo'ladigan omillar, sabablar, ularning lisoniy hamda nolisoniy tabiati mazkur jarayonda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

## ADABIYOTLAR

1. Гаспаров, Б. М. Язык, память, образ. Лингвистика языкового существования / М. Б. Гаспаров. – М. : Новое лит. обозрение, 1996. – 352 с.
2. Гравер, А. А. Образ, имидж и бренд страны: понятия и направления исследования / А. А. Гравер // Вестн. Том. гос. ун-та. Серия : Философия. Социология. Политология. – 2012. – № 3 (19). – С. 29–45.
3. Гринберг, Т. Э. Образ страны или имидж государства: поиск конструктивной модели / Т. Э. Гринберг // Медиаскоп. – 2008. – № 2. – Режим доступа: <http://mediascope.ru> (дата обращения: 01.08.2018).
4. Катинская, М. В. Категория имиджа: подходы к рассмотрению /М. В. Катинская // Теоретическая и прикладная лингвистика – 2015. – № 3. –С. 61–70.
5. Леонтьева А. Н. Значение когнитивного компонента в системе социально-психологической дезадаптации личности // Вестн. Челяб. гос. пед. ун-та. 2011. Вып. 8. С. 43–50.
6. Маслова В.А. Введение в лингвокультурологию. —М.: Наследие, 1997.
7. Розенфельд М.Я. Методы выявления образа в структуре значения слов /Культура общения и её формирования. - Вып.22. - Воронеж, 2006. – С.197-203.
8. Илюхина, Н. А. Метафорический образ в семасиологической интерпретации: монография / Н. А. Илюхина. – М. : Флинта; Наука, 2010. – 320 с.
9. Mamatov, A. E. Zamonaviy lingvistika: o‘quv qo‘llanma/ A.E.Mamatov. — Toshkent.: “Noshir” nashriyoti, 2019. 168 bet.
10. Юсупов Ў.Қ. Тилшуносликдаги янги йуналишлар ва уларда ишлатиладиган айрим истилохлар. Филология масалалари. 2011.